



UDK:396:001.895:124.5

**Muhayyo TO‘YEVA,**  
O‘zMPU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi  
E-mail: [tuyevamuhayyo@gmail.com](mailto:tuyevamuhayyo@gmail.com)

O‘zMPU professori, f.f.d M.Tillavoldiyeva taqrizi asosida

### NATIONAL-AXIOLOGICAL AND MODERN FOUNDATIONS FOR ENHANCING WOMEN’S INNOVATIVE THINKING

Annotation

This article examines the national-axiological and modern foundations for enhancing women’s innovative thinking in the context of contemporary social development. Special attention is paid to the role of national values, cultural heritage, and moral principles in shaping innovative consciousness among women. At the same time, the study analyzes modern factors such as digitalization, educational reforms, gender equality policies, and global innovation trends that contribute to the development of women’s creative and innovative potential.

**Key words:** Women’s innovative thinking, national values, axiology, cultural heritage, modernization, gender equality, innovation development, social progress, human capital, digital transformation.

### НАЦИОНАЛЬНО-АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ ЖЕНЩИН

Аннотация

В статье рассматриваются национально-аксиологические и современные основы развития инновационного мышления женщин в условиях современного общественного развития. Особое внимание уделяется роли национальных ценностей, культурного наследия и нравственных принципов в формировании инновационного сознания женщин. Наряду с этим анализируются современные факторы, такие как цифровизация, реформы в сфере образования, политика гендерного равенства и глобальные инновационные тенденции, способствующие развитию творческого и инновационного потенциала женщин.

**Ключевые слова:** Инновационное мышление женщин, национальные ценности, аксиология, культурное наследие, модернизация, гендерное равенство, инновационное развитие, социальный прогресс, человеческий капитал, цифровая трансформация.

### XOTIN-QIZLAR INNOVATSION TAFAKKURINI YUKSALTIRISH-NING MILLIY-AKSIOLOGIK VA ZAMONAVIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini yuksaltirishning milliy-aksiologik va zamonaviy asoslari tahlil qilinadi. Xotin-qizlarda innovatsion ongni shakllantirishda milliy qadriyatlar, madaniy meros va axloqiy tamoyillarning o‘rni alohida e‘tiborga olinadi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari, ta‘lim sohasidagi islohotlar, gender tenglik siyosati hamda global innovatsion tendensiyalar kabi zamonaviy omillar xotin-qizlarning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Xotin-qizlarning innovatsion tafakkuri, milliy qadriyatlar, aksiologiya, madaniy meros, modernizatsiya, gender tengligi, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, inson kapitali, raqamli transformatsiya.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va raqamli sivilizatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyoti inson intellektual salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, xotin-qizlarning intellektual va innovatsion tafakkurini rivojlantirish masalasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki chuqur falsafiy ahamiyat kasb etadi. Ayol tafakkuri milliy qadriyatlar tizimi orqali shakllanib, zamonaviy sivilizatsiya ta‘sirida yangi mazmun va shakllarga ega bo‘lmoqda. Ayollarning innovatsion tafakkuri zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda, davlatimiz rahbari 2025 yil 26 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomalarida ham xotin-qizlar masalasiga alohida e‘tibor qaratdilar “Xotin-qizlarning qadr-qimmatini joyiga qo‘yish, farzandlarimizni himoya qilish – qadim-qadimdan erkaklar uchun sha’n va g‘urur masalasi bo‘lib kelgan.

Lekin jamiyatimizda ayollar va bolalarning turli zo‘ravonliklarga uchratgani buyuk tarix, yuksak ma‘naviyat va ma‘rifatga ega bo‘lgan, oilani muqaddas deb biladigan xalqimizga aslo yarashmaydi” [1] dedilar. Ushbu maqolada ayollarning innovatsion tafakkurini shakllantiruvchi ijtimoiy, madaniy va aksiologik omillar tahlil qilinadi ekan jamiyat hayotida ayollarning rolini ilmiy ma‘rifat va ilmiy salohiyatini oshirgan holda ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga naqadar kerak ekanliklarini anglash yotadi. Globallashuv va tezkor texnologik taraqqiyot sharoitida innovatsion tafakkur ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Ayollar jamiyat hayotining faol ishtirokchilari sifatida ijodkorlik, moslashuvchanlik va ijtimoiy mas‘uliyat orqali innovatsion jarayonlarga salmoqli hissa qo‘shmoqdalar.

Ayollarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish nafaqat gender tengligi masalasi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun strategik zaruratdir. Innovatsion tafakkur yangi

g'oyalarni ilgari surish, ijodiy yechimlarni qo'llash va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini anglatadi. Ayollarning innovatsion tafakkuri ta'lim darajasi, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy muhit hamda imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Ko'plab jamiyatlarda ayollar innovatsiyaga ijtimoiy sezgirlik va mantiqiy muammolarni hal etish yondashuvini uyg'unlashtirgan holda o'ziga xos qarashlarni olib kiradilar. Ijtimoiy taraqqiyot iqtisodiy o'sish, madaniy yuksalish va hayot sifatining yaxshilanishini o'z ichiga oladi. Ayollarning innovatsion faoliyatdagi ishtiroki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, inklyuziv rivojlanishni ta'minlaydi va barqaror yechimlarni ilgari suradi. Ayollar intellektual va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlangan sharoitda innovatsiyalar insonparvar va jamiyat ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi roli tobora ortib bormoqda. Ularning innovatsion tafakkuri nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatlari, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion tafakkur – bu yangilik yaratish, mavjud jarayonlarni takomillashtirish va ijodiy yondashuv orqali muammolarni hal etish qobiliyatidir. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini shakllantirish milliy-aksiologik va zamonaviy asoslar bilan chambarchas bog'liq. Zero muhtaram Prezidentimiz tabiri bilan aytganda “Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasiga bo'lib, jamiyatda hamda o'z oilasida munosib o'rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz. Bu borada, avvalo, 2022-2024 yillarga mo'jallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab quvvatlash milliy dasturni qabul qilamiz...Ushbu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida ilmiy izlanish va kashfiyotlari bilan yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo'shib kelayotgan olim ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko'taramiz”[2]. Yangi asr dunyo miqyosida inson huquq va erkinliklari, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy muhofazasi bo'yicha nufuzli xalqaro tashkilot, uyushma va harakatlar, anjumanlar faollashuvi bilan izohlanadi.

Avestoda ayolga “inson hayoti va salomatligi, sog'lom ayoldan sog'lom farzand tug'ilishi omili deb baho berilgan. Ayol va farzandlari sarson-sargardon yurt – eng yomon yurt”, deb ta'kidlangan[3]. Xuddi shunday fikrlar Qadimgi Hindistonda ayol oilaning asosiy bo'g'ini (ota-ona, er, o'g'il, aka-uka), oila qo'rg'onining ustuni sifatida ta'riflangan[4]. Konfutsiy ta'limotida esa “xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyi erkaklarnikidan past, ayollarning asosiy burchi eriga, ota-onasiga tobe bo'lish, farzandlarni dunyoga keltirish,2 uyni saramjon qilishdan iborat”, deb hisoblangan[5]. Konfutsiy ta'limotida asosiy urg'u ayollarning biologik xususiyatlariga qaratilib, ruhiy-ma'naviy jihatlar ikkinchi o'ringa qo'yilgan.

Qur'oni Karim va Hadislarda ayollarga yaxshi muomala qilish, ularni hurmat qilish, ularga hurmat ko'rsatish haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, ayollarga nisbatan bunday munosabatni islomdan boshqa dinda uchratish qiyin[6]. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al Xorazmiy, Alisher Navoiy ayollarga doir axloqiy ta'limotni rivojlantirganlar. Jumladan, A.Navoiy “Arbain” asarida ona qadrini g'oyat ulug' tutish kerak deb, bunday yozadi: “Onalarning oyog'i ostidatur, ravzan jannatu jinon bog'i, ravza bog'i visolin istar esang, bo'l onangning oyog'i tuprog'i”[7]. Ibn Sino ayollarning bola tarbiyasidagi o'rni katta e'tibor berib, yettita fazilat sohibasi bo'lgan ayolni ideal murabbiy deb hisoblaydi. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida “bola tarbiyasi va unda onaning o'rni, oilaviy hayot, shaxs kamoloti” masalalari bayon etiladi[8]. Milliy-aksiologik

yondashuvga bag'ishlangan adabiyotlarda xotin-qizlar tafakkurining shakllanishida milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, oila va mahalla institutining ta'siri yetakchi omil sifatida e'tirof etiladi. Sharq mutafakkirlarining ilm-fan, tarbiya va ayol maqomiga oid qarashlari xotin-qizlarda ijtimoiy mas'uliyat, tafakkur madaniyati va yangilikka ochiqlikni rivojlantirishning muhim manbai sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga, adabiyotlarda milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsion talablarga moslashuv masalasi yetarlicha tizimli tadqiq etilmagani aniqlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot falsafiy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida xotin-qizlar intellektual va innovatsion tafakkurini shakllantirish masalasi milliy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya o'rtasidagi dialektik aloqadorlikda o'rganildi. Zamonaviy ilmiy manbalarda esa gender tenglik, ayollarning innovatsion faoliyatdagi ishtiroki, ta'lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida yoritilgan. Xususan, raqamli texnologiyalar, kreativ ta'lim metodlari va hayot davomida ta'lim olish (lifelong learning) konsepsiyasi xotin-qizlar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning muhim mexanizmlari sifatida talqin qilinadi. Biroq, ayrim xorijiy tadqiqotlarda milliy-madaniy omillar yetarli darajada hisobga olinmagani seziladi.

Mazkur maqolaga aksiologik yondashgan holda ayol tafakkurining shakllanishida qadriyatlar tizimining o'rni va uni o'sib kelayotgan yosh xotin-qizlarga uni sigdirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu yondashuv orqali milliy an'ana, axloqiy meyorlar va madaniy merosning ayollar innovatsion tafakkuriga ta'siri tahlil qilindi. Xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi ayolning tabiati, eng oliy fazilati – insoniyat naslining davomchisi ekanligini anglashida namoyon bo'ladi. Yurtboshimiz payg'ambarlar, aziz-avliyolar, johonni titratgan podshohlaru sultonlar, olimu donishmandlar ham, xullas barcha tabarruk insonlar onalarning bag'rida voyaga etganligiga alohida urg'u beradi. Tadqiqotlarda bolaga iqtidor va salohiyat otadan emas, balki onadan o'tib, yaponlarda o'zlariga ayol tanlashda iqtidorga mezon sifatida qabul qilingan. Ayollarning ijtimoiy faolligi ma'lumoti, tafakkur shakli, fe'l-atvori milliy taraqqiyotga ta'sir etishi isbotlangan aksiomadir. Chunki bolaga yetti yoshga to'lguniga qadar asosiy bilim beruvchi, ta'lim va tarbiya qiluvchi uning onasi bo'ladi. Odatda oilaning barcha ta'minoti otaning zimmasida bo'lishi qadim-qadimdan an'anaviylikda xotin-qizlarning bilimdon, kasb-hunarli bo'lishi jamiyatning juft tanlashda asosiy mezon bo'lgan.

An'ana va innovatsiya, milliylik va zamonaviylik o'rtasidagi qarama-qarshiliklar hamda ularning o'zaro uyg'unlashuvi jarayonini ochib berishda foydalanildi. Respublikamiz ilmiy jamoatchiligi ayolning jamiyatning ijtimoiy konstruksiyasida «Ayol - bu ona, ayol - opa-singil, ayol - bu sevimli mahbuba. Ayol xususida so'zlash, bu - zamonlar haqida so'zlash, tarix haqida so'zlash, bugunimiz va kelajagimiz haqida so'zlashga qiyosalashiga biz ham qo'shilamiz[8]. O'zbek jamiyatining yangilanishida ayollarning o'z huquq, manfaatlarini himoyasi, ijtimoiy muammolarni hamjihatlikda hal etishga intiluvchi faol siyosiy kuchga aylanishi, xotin-qizlar harakatining uyushma va tashkilotlarining umuminsoniy va milliy doirada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimi, oilaviy muhit, ijtimoiy institutlar va axborot texnologiyalarining ayol innovatsion tafakkurini rivojlantirishdagi o'zaro ta'siri tizimli tahlil qilindi. Ayol intellektual salohiyatini rivojlantirishda an'ana va innovatsiya qarama-qarshi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar ayol tafakkuriga ma'naviy tayanch bo'lsa, zamonaviylik unga yangi shakl va mazmun baxsh etadi. Ushbu uyg'unlik jamiyatda barqaror taraqqiyotning muhim falsafiy shartidir.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot jarayonida xotin-qizlar innovatsion tafakkurini yuksaltirish masalasi milliy-aksiologik va zamonaviy falsafiy qarashlar asosida tahlil qilindi. Ilmiy ishlari tahlili shuni ko'rsatdiki, innovatsion tafakkur inson ongining faqat texnologik emas, balki qadriyatli va ma'naviy asoslangan shakli hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda xotin-qizlar innovatsion tafakkurini yuksaltirish masalasi milliy-aksiologik va zamonaviy falsafiy yondashuvlar uyg'unligida tahlil qilindi. G'arb falsafasi vakillari bilan bir qatorda, O'zbekiston hududida yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy-merosiy qarashlari metodologik asos sifatida o'rganildi. Aksiologik tahlil shuni ko'rsatdiki, ayol tafakkurining rivojlanishi qadriyatli ong bilan chambarchas bog'liq. Bu jihat Al-Farobiyning "Fozil odamlar shahri"[9] asarida jamiyat taraqqiyoti bilim va axloqiy yetuklikka tayanishi haqidagi g'oyalari bilan hamohangdir. Farobiy ta'limotida shaxsning aqliy kamoloti jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv zamonaviy ayol innovatsion tafakkurini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar ayolning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy faolligi va intellektual imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Sharq falsafasida ayol tarbiya va ma'naviyat markazi sifatida e'tirof etilgan. Al-Farobiy ta'limotida jamiyat kamoloti bilim va ma'rifatli shaxslar orqali ta'minlanadi. Bugungi kunda ushbu g'oyalar ayol tafakkurini innovatsion yo'nalishda rivojlantirish bilan uyg'unlashmoqda.

Ibn Sinoning bilish va aql haqidagi qarashlari tahlili ayol intellektual salohiyatining biologik emas, balki ijtimoiy-ma'naviy omillar orqali shakllanishini ko'rsatdi. Uning "aql insonning oliy qudrati" [10] haqidagi fikrlari zamonaviy innovatsion tafakkur falsafasi bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqot jarayonida Ibn Sino qarashlari ayollarning ilmiy va innovatsion faoliyatini rag'batlantirish zarurligini asoslashga xizmat qildi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-tajriba va bilishga oid yondashuvlari innovatsion tafakkurning empirik va ratsional asoslarini ochib beradi. Beruniyning "ilmiy bilishda tajriba va kuzatuvga tayanish haqidagi qarashlari bugungi kunda ayollarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishda muhim falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi" [11]. Dialektik tahlil jarayonida an'ana va yangilik o'rtasidagi uyg'unlik masalasi o'rganildi.

Bu borada Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Avloniy "ayollarning ta'lim olishini jamiyat taraqqiyotining zarur sharti sifatida baholagan" [12]. Uning g'oyalari zamonaviy sivilizatsiya sharoitida ayol innovatsion tafakkurini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonlik allomalarning qarashlarida ayol tafakkuri axloqiy mas'uliyat, ma'naviyat va ijtimoiy manfaat bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu yondashuv zamonaviy G'arb falsafasidagi individualistik innovatsion model bilan

qiyoslanganda, ijtimoiy barqarorlikka yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Qiyosiy tahlil natijalari Sharq va G'arb jamiyatlarida ayol innovatsion tafakkuriga yondashuvlar turlicha ekanini ko'rsatdi. G'arb falsafiy adabiyotlarida individual erkinlik va shaxsiy tashabbus ustuvor bo'lsa, Sharq falsafasida ayol tafakkuri ko'proq ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Biroq zamonaviy ilmiy maqolalar ushbu ikki yondashuvning yaqinlashayotganini ko'rsatmoqda. Xotin-qizlar intellektual salohiyatini rivojlantirish milliy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya o'rtasidagi dialektik uyg'unlikda amalga oshadi. Aksiologik yondashuv ayol tafakkurining chuqur mohiyatini ochib berib, uni innovatsion rivojlanishning muhim subyekt sifatida namoyon etadi. Mazkur jarayon jamiyatning ma'naviy va intellektual taraqqiyotida muhim falsafiy ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqot xotin-qizlar innovatsion tafakkurini yuksaltirish masalasi milliy-aksiologik va zamonaviy falsafiy yondashuvlar uyg'unligida tahlil qilishga qaratildi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, uni innovatsion tafakkuri faqat texnologik yoki utilitar jarayon sifatida emas, balki qadriyatli ong, ma'naviy mas'uliyat va ijtimoiy ijodkorlikning murakkab falsafiy hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonlik allomalar — Al-Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Abdulla Avloniy ilmiy merosida ilgari surilgan bilim, aql va axloq uyg'unligi g'oyasi zamonaviy innovatsion tafakkur uchun ham dolzarb ekanini tasdiqladi. Ushbu meros ayol tafakkurining milliy-aksiologik poydevorini tashkil etib, uni globallashuv sharoitida ma'naviy barqarorlik bilan ta'minlaydi. Falsafiy tahlil shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasida ziddiyat emas, balki dialektik uyg'unlik mavjud. An'ana ayol innovatsion tafakkurini cheklovchi omil emas, balki uning mazmuniy va axloqiy yo'nalishini belgilovchi ma'naviy asos vazifasini bajaradi. Zamonaviy sivilizatsiya esa ushbu qadriyatlarni yangi ijtimoiy, ilmiy va texnologik shakllarda namoyon etish imkonini yaratadi. Tadqiqotda aniqlanishicha, ayollar innovatsion tafakkurining rivojlanishi ta'lim, ijtimoiy institutlar va madaniy muhitning aksiologik yo'naltirilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ayol tafakkurini rivojlantirish strategiyasi faqat institutsional islohotlar bilan cheklanmasdan, balki qadriyatli ongni shakllantirishga yo'naltirilgan falsafiy asosga ega bo'lishi zarur. Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar innovatsion tafakkurini yuksaltirish jamiyat barqaror rivojlanishining muqarrar falsafiy sharti bo'lib, u milliy falsafiy meros va zamonaviy nazariyalar sintezi asosida samarali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv nafaqat ayollarning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqaradi, balki jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy va innovatsion taraqqiyotini ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. 2025-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi
2. SHavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6 "O'zbekiston". Toshkent -2023 398 B
3. Авесто. Тарихий-адабий ёдгўрлик. Асакар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 366-369.
4. Индия// Cuberleninka.ru <https://cuberleninka.ru/article/pr>
5. Буранок Д.Ю. Положение женщины по конфуцианскому канону "Шицзин" // Гуманитарные научные исследования, 2014. – № 2. [https://human/snauka.ru/2014/02/5903](https://human.snauka.ru/2014/02/5903).
6. Куръони карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳи таржимаси / тарж. А.Иноятов. – Тошкент: Hilol-nashr, 2022. – 688 б.
7. Кайковус У. Қобуснома. – Тошкент, 2008. – Б. 26.
8. Саифназарова Ф.Дунёда бир улуг зот борки // Инсон ва қонун. – 2009. 8 июнь.
9. Abu Nasr al-Farobiy "Fozil odamlar shahri" Toshkent: Fan,1993.-45-78-betlar.
10. Abu Ali ibn Sino Donishnoma (Kitob ash-shifo dan tanlangan boblar) -Toshkent: Fan, 1980 -112-134-betlar.
11. Abu Rayhon Beruniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992. 67–102-betlar.
12. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992. 15–38-betlar.